# Uzbekistan Airways aviaqatnovlariga roʻyxatdan oʻtish vaqti oʻzgardi

**2024 17 Aprel**

Toshkent xalqaro aeroportida aviaqatnovlar soni oshishi va yoʻlovchilar oqimi koʻpayishi hisobga olinib, roʻyxatdan oʻtish jarayoniga tegishli yangi qoidalari joriy etildi. Endi Uzbekistan Airways xalqaro aviaqatnovlariga roʻyxatdan oʻtish vaqti qatnov joʻnashiga 40 daqiqa emas, 1 soat qolganda tugatiladi.

Parvozdan oldin boʻladigan amaliyotlarni bajarish uchun zarur boʻlgan qoʻshimcha vaqtni hisobga olgan holda, yoʻlovchilardan aeroportga oldindan yetib kelishlarini soʻraymiz.